

"SIZLAR TARIXIMIZNING BIR BO'LAGI"!

*Farg'onan viloyati Bag'dod tumani MMTB tassarufidagi 62-umumiy o'rta ta'lim maktabining tarix va huquq fani o'qituvchisi
Sheraliyeva Marhaboxon Odiljonovna*

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2-jahon urushining fojealari hamda bu jarayonni yuzaga chiqargan omillar, mavjud ijtimoiy-siyosiy holatlar, shuningdek, qatag'on siyosatining jamiyat mafkurasida qoldirgan oqibatlari talqin etilgan.

Tayanch so'zlar: " Mustabid tuzim", " Istiqlolchilar", " Sovet", " Qatag'on siyosati", "Inog'omovchilik", "Gulag lageri", "Bosmachi" va boshqalar.

Kirish.

2- jahon urushi – bu insoniyat tarixida eng katta fojealardan biri sifatida o'rin egallagan . Bu urushga 72 mamlakat ishtirok etgan bo'lib , ulardagi armiyalar safiga 110 mln kishi safarbar qilingan edi. Bunday kun hech qachon bo'lmasin. Buning natijasida qariyb 55 mln kishi o'ldirilib, minglab shaharlar , qishloqlar , savdo va fabrikalar , madaniyat obidalari vayronaga aylangan edi. Ko'rilgan zarar va sarflangan mablag' esa 4 trln dollorni tashkil qildi. " Enam rahmatli shunday der edi: - Olloh hech qachon bunday urushni ravo ko'rmasin deb, boshlaridan o'tkazgan qiyinchiliklar haqida so'zlab berar edi ". Oilada kenja farzand bo'lgan yakka-yu –yagona akasi esa, 1941-yilda frontga olib ketilgan. Undan xat kelsa , ota-onasiga quvonch ko'z yoshlari bilan o'qib bergenlarini aytib berardi. Bu yillarda oziq-ovqat taqchilligi ertalabdan-kechgacha dalada ishlasa , bir kosa atala berishlarini , o'sha davrni ayanchi , ahvolini aytib , ko'ziga beixtiyor yosh olardi. Urush enamni akasini ya'ni , **ASTANAQUL Sattarqulov** bobomizni ham o'z domiga tortdi. Bobomdan kelgan xatlarni enam ko'z qorachigiday asraydi va ularni ko'z yosh bilan o'qiydi.



Oilaga qora xat keldi. Xatda , bobom Novosibriskiyda mardlarcha halok bo'ldi - degan yozuvlar bor edi . Bu o'g'ir musibatdan bobomning onaizori chiday olmadi va olamdan o'tdi. Ota esa ko'kragini zaxga berib , bir necha oy yotdi , lekin o'g'lidan faxrlanardi. Chunki , u Vatan uchun jon fido qildi . Otasi front uchun o'z boyliklarini : otlarini , mollarini , arava , taqinchoqlarni berib yuboradi. Ota ham farzand dog'ida kuyib uzoq yashadi , lekin bunday dorulomon kunlarni ko'rmadi. Enam shunday kunlarni ko'rди. Kechagiday ko'z o'ngimda „XOTIRA” kitobi chiqib , mahalla raisi tomonidan olib kelib berilganida , uning sahifalarida akasini ismi , familyasi chiqganidan quvonch ko'z yoshlarini to'kadi.


Hukumatimizga , Prezidentimizga rahmat ! Urush qatnashchilarini , hatto vafot etganlarni unutmaganligini aytib , duolar qildi. „Akasidan kelgan xatlarni olib yana bir bor bag'riga bosib menga o'qib berishini aytadi. Enam shunday der edi: „Aziz qora ko'zlarim bunday dorulomon kunlarni qadriga yetinglar va albatta o'qinglar , o'rganinglar der edi”. Bizning boshimiz ne-ne kunlarni ko'rmadi. Sizlarga hech qachon bunday kunlar kelma-sin. Endigina 1941-yil urushini unitib , yelkamizga oftob tegdi deganlarida


dadamlarni (MAMATQULOV Odiljon) 1980-yil avgust oyida „Afg'on" urushiga olib ketadilar.



Enam esa kecha-yu-kunduz duoda chunki yonida kelini onam va men bor edim. Dadamdan xat kelishini intiqlik bilan kutar va doimo duoda edi. Olloh dadamlarni umurlarini ziyoda qilgan ekan .Urush tugab , dadamlar ota-onasi, oilasi bag'riga sog'-u salomat qaytib kelgan .O'sha yillarda enamdan bahtli inson yo'q edi. Men dadam urushdan kelganida 4 yashar bola bo'lganman. Bugungi kunda oilada 5 nafar farzandmiz. Ota-onamlarni umrlarini olloh hamisha uzoq qilsin , barchamizni oliygohlarda o'qitdi . Hozirgi kunda bizdanda baxtli inson yo'q. Dadam - oila davrasida yig'ilganimizda jangohdag'i voqealarni so'zlar ekan , u yerdagi insonlarni o'limi , doimo portlash , o'q ovozlarini yangrab turishini gapirib , shunday osoyishta , musaffo tinch kunlarga beedad shukronalar aytib , barchamizga doimo shukur qilinglar , sizlar eng-eng baxtli insonsiz chunki , barcha shart –sharoitlarga ega davlatda yashayotganingizga albatta shukronalar aytинг deydi!!!

Albatta insonni hech bir xizmati chetda qolmas ekan. Hukumat dadamni juda ham ko'plab qahramonlik ordenlari, medallar va pul mukofatlari bilan taqdirladi.





Prezidentimiz tomonidan turli imtiyozlar berildi. 1999-yilda Rossiya federatsiyasi prezidenti Vladimir Putin tomonidan „5 yulduz“ ordeni va pul mukofati jo’natildi. 2003-yilda birinchi prezidentimiz IslomAbdug’aniyevich KARIMOV tomonidan orden bilan taqdirlandi. Har yili Xalqimiz 9-may va boshqa muhim bayramlarda albatta „Afg’on urushi” qatnashchilarini doimo ardoqda eslaydi.





Men dadam bilan faxrlanaman. Har bir farzand uchun ota eng – eng ulug' zot va ota – onam yonimda ekanligidan mening beabajo boyligim ekanligidan ollohg'a beedad shukrona aytaman. Ollohimdan ularning umirlarini ziyoda qilsin. Hech qachon insoniyat boshiga urush degan kulfat tushmasin . Baxtimizga ko'z tegmasin . Men ishonamanki , Yurtim boshida aqilli , mard , jasur , fidoiy xalqi uchun yonib yashaydigan yo'lboschchimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bor. "Olloh umurlarini ziyoda qilsin!!!"